

O'ZBEK TARIXSHUNOSLIGI SOHASIDA TARIXCHLIK MAKTABINING YUZAGA KELISHI JARAYONI

ORIENTAL UNIVERSITETI 70220301

*-Tarix ixtisosligi II kurs Magistri
Jalilov Asqar Yo'ldosh o'g'li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 40-60-yillarida ilmiy faoliyat yuritgan o'zbek zabardast ilm-fan arboblaridan tarishunos va qadimshunoslarni shuningdek, o'zbek milliy tarixshunosligimizning ulug' vakillari, ma'rifatparvar olimlari o'zbek milliy tarixshunosligi sohasi rivojiga o'zining benazir hissasini qo'shgan ulkan tarixshunos hamda qadimshunos (Arxeolog) olimlarimizning, o'zbek milliy tarixchlik maktablarining muhim jihatlarni, olimlarimiz ilmiy pedagogik faoliyatlarining o'ziga xos muhim qirralarini hamda bu olimlarimizning o'zbek tarixshunoslik sohasidagi erkin va mustaqil fikr-mushohadalarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib o'tamiz...

Kalit so'zi: XX asr boshlari o'zbek milliy tarixchiligi maktabi shakllanishi. XX asr birinchi yarimlarida o'zbek milliy tarixshunosligining rivojlanish jarayoni. O'zbek milliy tarixchilik maktablarining o'ziga xosligi.

THE PROCESS OF THE EMERGENCE OF THE SCHOOL OF HISTORIOGRAPHY IN THE FIELD OF UZBEK HISTORIOGRAPHY

ORIENTAL University 70220301

*-Second year Master's student in History
Jalilov Askar Yuldashev son*

Annotation: In this article, we will consider the important aspects of our outstanding Uzbek scientists, historians and antiquarians who worked in the 40s-60s of the 20th century, as well as the great representatives of our Uzbek national historiography, enlightening scientists, who made a unique contribution to the development of the field of Uzbek national historiography, the important aspects of the Uzbek national historiography schools, the specific important aspects of the scientific pedagogical activities of our scientists, and the specific features of the free and independent opinions and observations of these scientists in the field of Uzbek historiography...

Keyword: 20th century The beginnings of the formation of the Uzbek school of national historiography. The development of Uzbek national historiography in the

first half of the 20th century. The uniqueness of Uzbek schools of national historiography.

ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ИСТОРИИСТСКОЙ ШКОЛЫ В ОБЛАСТИ УЗБЕКСКОЙ ИСТОРИОГРАФИИ

ВОСТОЧНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ 70220301

-Магистр истории, 2 курс

Джалилов Аскар Юлдашов

Аннотация: В данной статье мы рассмотрим важные аспекты деятельности наших выдающихся узбекских ученых, историков и антикваров, работавших в 40-60-х годах XX века, а также великих представителей нашей узбекской национальной историографии, просвещенных ученых, внесших уникальный вклад в развитие области узбекской национальной историографии, узбекских национальных историографических школ, уникальные важные аспекты научно-педагогической деятельности наших ученых, а также уникальные черты свободных и независимых взглядов и наблюдений этих ученых в области узбекской историографии...

Ключевое слово: Формирование узбекской школы национальной историографии в начале XX века. Развитие узбекской национальной историографии в первой половине XX века. Своеобразие узбекской национальной историографической школы.

KIRISH

XX asrning birinchi yarmilarida o'zbek milliy tarixshunoslik sohasi hamda tarix ilimida dastlabki maktablar (tarixchilik maktabi) vujudga kela boshlagan edi... XX asrning birinchi yarmilarida (20-30-yillarida) dastlabki o'zbek milliy tarixchilik maktabiga asos solingan edi... Po'lat Majidovich Soliyev mana shu maktabining (tatixchilik maktabining ilk tashabbuskori sanaladi) tamal toshini quygan deya mulohaza yuritadigan bo'lsov aslo mubolag'a qilmagan bo'lamic... Biroq tanganing ikkinchi tomoni bo'laganidek, bu tarixchilik maktabi mustabid sovet hukumati davrida XX asrning birinchi yarmilarida (20-30-yillarida) ularning qattiq senzuraviy taziyqiga uchrab, dastlabki faoliyatini mustaqil va erkin holda olib bora olmagan edi hamda zamonning turli xil to'siqlarga, qarshiliklariga uchragan edi...

ASOSIY QISM

15 ta milliy "Respublikalarni" (o'lkalarni) o'zida birilashtirgan mustabid sovet hukumatida dastlab bu hukumat hokimiyyat tepasiga kelgan birinchi kunidan boshlab (1917-yil Fevral va Oktyabr to'ntarishidan keyin) mana shu 15 ta milliy o'lkalarning

ham iqtisodiy-moddiy, ham ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayoti ustidan o'zlarining mustabidona hukmronligini singdira boshlagan edi... Bu qattol va manfur siyosatdan ilm-fan sohasi ham qochib qutila olmagan edi... Mustabid sho'rolar hukumati Turkistonda (O'zbekistonda) ilm-fanning Ijtimoiy gumanitar sohalariga keng nigohini qaratgan bo'lib, bunda aynan shu yo'nalishdagi fan sohalarining inson ga va uning ongiga nisbatan mafkuraviy qarashlarini singdirishda qulaylik imkoniyatlari mavjud ekanligini bu qattol tuzum gumashtalari aynan mana shu ilm-fan sohasiga ko'b e'tibor qaratishi lozimligi hamda mana shu fan sohalari orqali o'zlarining manfur sovetcha mutaassiblikni va mafkurasini, sovetcha g'oyalarini mustamlaka o'lkalarning aholisi ongi-shuuriga singdirishda dastak sifatida foydalanishga kirishgan edi.... Chunki mustabid sovet hukumati aynan Ijtimoiy gumanitar fan sohalari insonning histuyg'ulariga kuchli ta'sir qilishligini hamda o'zlarining mustabidona sovetcha mafkuraisini singdirishi uchun qulay ekanliklarini, shuningdek, boshqa fanlarga qaraganda afzalroq ekanligini tushunib yetgan edi.... Shu sababli ham XX asrning birinchi yarmilarida (20-30-yillarida) sobiq sho'rolar hukumati Turkistonda (O'zbekistonda), balki butunittifoq miqyosida Ijtimoiy gumanitar fan sohalariga o'zlarining kommunistik-sotsialistik mafkurasini tiqishtirish jarayonini boshlab yuborgan edi... Ijtimoiy gumanitar fan sohalaridan tarix fani orqali mustabid hukumat o'zlarining kommunistik-sotsialistik mafkurasining soxtalashtirilgan varinatlarini bu tarix fani qatlariga tiqishtirmoqchi bo'lishgan edi... Bundan tashqari, bu mustabid hukumat davrida ilmiy faoliyat yuritgan dastlabki o'zbek tarixshunos olimlarning hamda tarixchilik maktabining asoschilari ilmiy faoliyatlarini kuchaytirilgan nazorati-senzurasi orqali nazoratda saqlab turishganligini vatanimiz tarixining sahaifalarida ko'rishimiz mumkin bo'ladi... Shuning uchun ham XX asrning birinchi yarmilarida vujudga kelgan tarixchilik maktablariga hamda shu maktab tashabbuskorlariga nisbatan mustabid sovet hukumati kuchaytirilgan nazorati-senzurasi o'rnatilganligi orqali o'zlarining kommunistik-sotsialistik mafkurasining mazmun-mohiyatini, albatta, mumkin qadar bo'lsa-da, ilmiy tadqiqotichlik faoliyatlarida berishlari lozimligi, bu kommunistik-sotsialistik mafkuradan sira ham chetga og'masligi, unga hurmat bilan qarashi shartligi, mustabid dovet hukumati yuritayotgan siyosiy tuzumga shubha bilan qaramaslik, kommunistik-sotsialistik partiyaning chizgan chizig'idan chiqmaslik, unga qullarcha munosabatda bo'lib, har qanday yot g'oyalar va mafkuralar ta'siriga berilib ketmaslik, sobiq sho'rolar tuzumiga itdek sadoqat bilan xizmat qilish lozimligi, o'zlarining ilmiy tadqiqotichlik na'munalarida sovet mustabid hukumatni ko'klarga ko'tarib maqtash, uzoq o'tmish tarixga xolisona baho berish, mana shu tarixni haqqoni yortib berimaslik hamda bu qattol hukumatning sun'iylashtirilgan tarixini yortib berishdek talablar qo'yilgan edi.... Xuddi mana shu salbiy holat XX asrning birinchi yarmilarida (20-30-yillarida) dastlabki o'zbek milliy tarixshunoslik sohasi hamda tarixchilik maktabida ham ko'zga ko'rina boshlagan edi... Bunga misol tariqasida, XX

asrning birinchi yarmilarida birinchi bo'lib, o'zbek milliy tarixshunoslik sohasi hamda tarixchilik maktabi tashkilotchisi bo'lgan jadid ma'rifatparvari va ziyolisi bo'lgan ilm-fan arbobi Po'lat Majidovich Soliyev faoliyatida o'z izini qoldirganligini biz uning 1928-1929-yillarda yozgan "**Turkiston (O'zbekiston) tarixi (XI-XV asrlar)**" kitobi yozilgandan so'ng, bu kitob haqida turli bo'xtonlar, tanqidiy maqolalar, xullas kalom, mustabid sovet hukumatining qattiq senzuraviy taziyqiga uchrab qolganligi orqali isbotlasak, aslo xato bo'lmaydi... Bu kitob haqida mustabid sovet hukumatining qarashlari va yondashishlarida senzuraviy taziyqini sezib turamiz hamda bunda olimni mustabid hukumat tarixda yondashishda xato qolganligini, ya'ni mustabid sovet hukumat o'rnatilgan davrdan ham oldingi davr o'rta asrlar davridagi Turkiston (O'zbekiston) o'lkasining muhim iqtisodiy-moddiy va ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotidan tarixiy manbalar hamda olimning uzoq vaqt ilmiy izlanishlari orqali to'plangan muhim ma'lumotlarni tasvirlab bergen edi. Biroq mustabid hukumat bu kitobga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan edi, ya'ni olimni o'tmishni ideallashtirishda, shuningdek, o'tmishdag amirlar, podsholar, hukmdorlar faoliyatiga ijobiy munosabatda bo'lib, ularga qullarcha ta'zim qilishda, ularning davrini tusash, sovet hokimiyatidan oldingi o'sha davrlarni ideallashtirish, shu zamonalarni qo'msashda ayblangan edilar.... O'shanda olimga Turkistonning (O'zbekistonning) qadimiyligi o'tmishini, tarixini ulug'lash, shuningdek, Turon xalqlarining o'rta asrlardagi boy tarixini ulug'lashdan ko'ra sovet hukumatini, shuningdek, ularning 1917-yil Fevral va Oktyabr to'ntarishini (Inqiloblarini) ulug'lash hamda bu inqilobning Podsho Rossiysi tarkibidagi mazlum o'lka xalqariga "haqiqiy erkinlik, mustaqillik" ni olib kelganligi, inqilobning mazlum o'lka xalqlari taqdiriga ko'satgan "buyuk" ta'siri hamda ahamiyati (Inqilobning tarixiy ahamiyati haqida kitob yozishlarini qat'iy talab va "taklif" qilgandilar...¹ Keyingi davrda, ya'ni XX asrning o'rtalariga kelib (40-50-yillarda), o'zbek milliy tarixshunoslik sohasi hamda tarixchilik maktabida qadimshunos (arxeolog) olimlarimizdan akademik Yahyo G'ulomov, tarixshunos olim Hamid Ziyoyev, tarixshunos olim Abdulahad Rahimjonovich Muhammadjonovlar azim va qadimiy poytaxtimiz Toshkent shahrida, Ahmadali Asqarov Namangan viloyatida (Keyinchalik esa Toshkent shahrida) tarixshunoslik sohasi hamda tarixchilik maktablariga asos solishgandi.... Qadimiy Toshkent shahridan chiqqan o'zbek xalqning birinchi qadimshunos (arxeolog olim) olimi Yahyo G'ulomov o'tgan asrimizning (XX asrning 30-40-yillarda) o'ziga xos tarixchilik maktabiga asos solgan bo'lib, bunda bu qadimshunos (arxeolog olim) olim tomonidan Qadimgi Xorazm hududlaridagi qadimiy arxeolog qazishma ishlarida boshchilik qilishi, shuningdek, Surxondaryo vohasidagi eng qadimiy arxeologik topilma hamda tarixi hududlari hisoblangan Ayritom manzilgohi joylashgan geografik makonlarni, shuningdek,

¹ Tuzum va davlatchilik. "O'zbekiston ovozi" gazetasi. 1999-yil 16-yanvar. (H. Ziyoyev).

Qoraqalpog'istonning janubiy yerlarini (Guldursun va Naridion msnzilgohlarini) ilmiy jihatdan tadqiq etganligi boisdan XX asrning 40-50-yillarida o'zbek milliy tarixshunoslik sohasi hamda arxeologik (qadimshonoslik) sohalarida alohida maktab asoschisi hisoblanar edi...² O'zbek xalqining birinchi qadimshunos (arxeolog olimi) olimi Yahyo G'ulomov faoliyati hamda sa'yi harakatlari natijasida XX asrning 40-50-yillarida O'zbekiston SSR da ham tarixshunoslik sohasi anchagina jonlanib, hali o'zbek milliy tarixshunosligiga ma'lum bo'limgan ko'plab tarixiy qadamjolar, O'zbekistonning eng qadimgi odamlar istiqomat qilishgan ko'plab qadimiyat ildizlari nishonlari topilgan tarixiy arxeologik makonlar, hududlar Qadimgi Xorazm vohasidagi qadimiy yodgorliklar, eng qadimgi odamlarining izlari topilgan hududlari bilan boy - Qadimgi Buxoro vohasi hamda Qadimgi Zarafshon hududlaridagi eng qadimgi insoniyat tamaddunining tarixiy qadimiyat belgilarining topilishi, shuningdek, Surxondaryo vohasidagi qadimiy Kushon davlati davriga oid Ayrитом kabi qadimiy manzilgohlarning topilishi hamda ularning O'zbekiston tarixiga kirgizilishi sabab o'zbek milliy tarixshunoslik sohasi hamda tarixchilik maktablari rivojida ulkan yangiliklar bo'ldi desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamic.... Aynan mana shu olim Yahyo G'ulomovning tashabbuskor ilmiy izlanishlari natijasida O'zbekiston hududlaridagi hali fanga noma'lum bo'lgan ko'plab tarixiy manzilgohlarining topilishi, ularni ilmiy jihatdan tadqiq etilishi hamda buning natijasida O'rta Osiyo mintaqasida (O'zbekistonda) eng qadimgi davrdan - Tosh davridan (Poleolit davridan miloddan avvalgi bir millioninchi yillikdan to 6-7-ming yillikka qadar bo'lgan ulkan bir davrlar hisoblanadi...) beri insoniyatning ilk ajdodlari (O'rta Osiyoning eng qadimgi aholisi) izlarining topilishi natijasida O'zbekistonning tarixi naqadar uzoq bir davrlarga borib taqalishini, buning uchun biz qanchalik darajada faxrlansak ozligini anglashimiz mumkin bo'ladi.... Akademik Yahyo G'ulomovning ilmiy izlanishlari natijasida O'zbekiston hududlarida eng qadimgi odamlarning izlarini (suyak qoldiqlari, sklet va hakozo) topib, ularni ilmiy jihatdan tadqiq qilishi jarayoni aynan mana shu ilm-fan darg'asining sa'yi-harakatlari bilan mustabid sovet hukumati davrida bo'lsa ham, O'zbekiston SSR tarix fani darsliklarida qayd etilishining (Ma'lum darajada bo'lsa ham...) o'zi ham asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, rivojlana boshlanganligini, mustamlaka sharoitda ham, marksistik-leninistik mafkura senzurasi taziyqiga qaramasdan ham, qotib qolmasdan, taraqqiy eta borishining o'zi O'zbekiston SSR da ilm-fan sohasi qaror topa borganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi...shuningdek, Akademik Yahyo G'ulomovning ilmiy tadqiqotichlik faoliyati ta'sirida O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining Tarix va Sharqshunoslik institutlarining ham rivojlanishida ulkan hissasi borligini ko'rishimiz hamda aynan olimning XX asrning o'rtalarida (50-60-yillarida) olib borgan ilmiy izlanishlari asosan O'zbekiston SSR ilm-fanida

² 2. Sovet davridagi davlat tizimi. "O'zbekiston ovozi" gazetasi. 1999-yil 16-yanvar. (H. Ziyoyev).

arxeologiya (qadimshunoslik) hamda manbashunoslik sohalarining o'ziga xos mакtablariga asos solganligini, bu mакtab (o'zbek milliy tarixshunoslik sohasining arxeologiya va epigrafiya (manbashunoslik) yo'naliшhlaridagi mакtablar vujudga kelganligi aynan shu zotning sa'yi-harakatlari bilangina mavjud bo'lganligini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim...) o'quvchilari (Akademik Yahyo G'ulomovning ilmiy faoliyati izdoshlari bo'l mish ilmiy tadqiqotchilik bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar nazarda tutilmоqda...) tomonidan O'zbekiston SSR hududlarida eng qadimgi insoniyat tamadduni na'munlari topilgan eng qadimgi qadamjolarning izlab topilishi natijasida O'zbekiston SSR da arxeologiya va manbashunoslik mакtabining shakllanishida alohida ahamiyat kasb etganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi....Bundan tashqari, aynan XX asrning o'rtalarida (50-60-yillarida) yillarida ilmiy izlanishlar va tadqiqotichlik faoliyatlarini olib borgan o'zbek tarixshunos va qadimshunos (arxeolog) olimlarimizdan akademik Yahyo G'ulomov, olim Hamid Ziyoyev, olim Abdulahad Rahimjonovich Muhammadjonov, tarixshunos mutaxassis (Keyinchalik tarixshunos olim bo'lgan) Ahmadali Asqarov kabi buyuk ilm-fan darg'alari tashabbuslari hamda ilmiy faoliyatlar natijasida o'zbek tarixshunoslik sohasi hamda tarixchilik mакtabida yangicha bir davrning boshlanishi jarayoni yuz bergan desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz... Chunki aynan mana shu tarixshunos olimlarimizning sa'yi-harakatlari natijasi o'laroq o'zbek milliy tarixshunoslik sohasiga (tarix faniga) yangidan-yangi ilmiy manbalar, ilmiy tadqiqotichlik na'munalari yaratilib, ularning asnosida o'zbek xalqining tarixi uzoq-uzoq o'tmishlarga borib taqalishini, ya'ni kamida 3000-2500 yilliklarni o'z ichiga olganligini, judayam qadim zamonalardan buyon O'rta Osiyo (O'zbekiston) hududlarida insoniyatining ilk ajoddlari yashaganligini hamda ularning madaniy turmush tarzidagi tamaddunilarini, shuningdek, o'zbek xalqining boy tarixiga ega ekanliklarini, sobiq sho'rolar davrida o'zbek xalqining tarixiga nisbatan nazar-pisand qilmasligi, har qadamda ma'naviyat va madaniyatimiz ustidan kulishligi asossiz ekanligini, balki sobiq sho'rolar tarkibidagi ko'pgina xalqlarning tarixiga nisbatan biz o'zbek xalqining tarixi nihoyatda boy ekanligi hamda qadimiyroq ekanligini alohida ko'rishimiz mumkin bo'ladi... XX asrning o'rtalariga kelib, o'zbek tarixshunoslik sohasi hamda tarixchilik mакtablari mana shu buyuk ilm-fan darg'alari hisobiga anchagina boyidi hamda taraqqiy etagan edi. Aynan mana shu ilm-fan egalarining alohida sa'yi-harakatlari natijasida keyingi davr tarixshunos mutaxassislarimizning yetishib chiqishiga zamin hozirlagan edi desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tuzum va davlatchilik. "O'zbekiston ovozi" gazetasi. 1999-yil 16-yanvar. (H. Ziyoyev).
2. Sovet davridagi davlat tizimi. "O'zbekiston ovozi" gazetasi. 1999-yil 16-yanvar. (H. Ziyoyev).
3. Tarix haqiqati. "Mustaqillik - bu huquq" to'plami. 1998-yil. Toshkent. (H. Ziyoyev).

4. Chinakam inson va olim. "Yaxshilar xotirasi boqiyidir" to'plami. 1998-yil. Toshkent. (H. Ziyoyev).
5. O'zbekistonda paxta yakkahokimligi uchun kurash va uning oqibatlari (XIX asrning ikkinchi yarimi - XX asr boshlari). 1999-yil. Toshkent. (H. Ziyoyev).

Internet saytlari:

6. www.Ziyonet.uz
7. www.google.uz
8. www.til va adabiyot ta'limi.uz
9. www.Scoups
- 10.Https//uz.wikipedia
- 11.Https//ziyouz.com
- 12.Https//www.tarix.uz
- 13.Https//ru.wikipedia.org
- 14.Https//jadid.uz
- 15.Https//www. Supportscience.com